



## BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Mamajonova Munojatxon Xoshimovna**

*Andijon viloyati Izboskan tumani*

*12-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola pedagogik muloqat qobiliyatlar. Kommunikativ qobiliyatlar. O'qituvchining ilmiy-tadqiqot faoliyati. O'qituvchi pedagogik faoliyatining konstruktiv, tashkiliy, gnostik va kommunikativ kabi tarkibiy qismlari. O'qituvchining pedagogik mahorati. Pedagogik mahoratning insonparvarlik, kasbiy bilimlar pedagogik texnika kabi tarkibiy qismlari. Maktabni innovatsion boshqaruv modeli. Maktabni rivojlantirish dasturi. Rivojlantirish muhitida maktab ichki ishini tashkil etish. Zamonaviy, ilg'or innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tatbiq etish. Maktab hayotini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va liberallashtirish. Boshqaruv madaniyatini printsiplari haqida so'z olib borilishi haqida.*

**Kalit so'zlar:** *Kommunikativ qobiliyat, innovatsion texnologiya, demokratlashtirish, liberallashtirish, printsipl, motiv.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;





2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

«Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ni amalga oshirishda inovatsion pedagogik texnologiyalar. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi. bo'lajak o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariy asoslari bilimlari bilan qurollantirish; yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo'lishlari; zamonaviy pedagogik texnologiyalar, g'oyalar maktablar, yo'nalishlar, keng turlarida yo'l topa bilish mahorati; pedagogik faoliyatni ijodiy va metodik to'g'ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish; mustaqil ishlash, mustaqil bilim olish, o'zini tarbiyalash va o'zini mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faollashtirishning umumiy tavsifi innovatsion pedagogika: predmeti, ob'ekti, vazifalari, tadbiri qilinadigan sohalari.


Innovatsion pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanishi Innovatsion pedagogikaning vujudga kelishi va rivojlanishi Innovatsion pedagogikaning umumiy g'oyasi va uning tushunchalari Innovatsion pedagogika tarixiga bir nazar. Milliy pedagogika va innovatsiya. Ilg'or pedagogik g'oyalarni vujudga kelishida Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlarning roli va o'rnini. XIX asr insonparvarlashtirish davri. Insonparvarlashtirish pedagogikasi. Innovatsion pedagogikaning vujudga kelishi. AQSH gummanist olimi Karl Rodjers ta'limoti (quvonch maktabi asoschisi). Innovatsiya madaniy, iqtisod, sanoat sohasida. 20 asrda innovatsiyani pedagogik faoliyatga o'tish davri o'qituvchining innovatsion faoliyati.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv) ga ega bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. R. A.Mavlonova M.Arabova ,G` Saloxiddinova “Pedagogik texnologiya” T-2008. Fan.
2. J.G` Yo`ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O`qituvchi, 2004.





3. Azizxodjayeva N. "Pedagogik texnologiya va mahorat", Toshkent, TDPU., 2006 y.

4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

5. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

